

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA
YONDASHUV”**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari

(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi
munosabati bilan tashkil etilgan)

2021-yil 22-may

TOSHKENT – 2021

“O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – T.: 2021. 395 -bet

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

S.Normamatov – filologiya fanlari doktori (DSc)

I.Azimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

B.Abdushukurov - filologiya fanlari doktori, professor

T.Tog‘ayev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Rahmatov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

S.Adilova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova – filologiya fanlari doktori (DSc)

M.Umurzoqova – fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Z.Xidraliyeva – o‘qituvchi

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida tomonidan taniqli tilshunos olim, professor **Samixon Ashirboyev** tavalludining 75 yilligi munosabati bilan “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi 2021-yil 22-mayda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi yig‘ilishining 2021-yil 4-maydagi 13-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

“TIL ITTIFOQI” TUSHUNCHASINING O‘ZBEK AREAL LINGVISTIKASIGA TATBIQI MASALASI

Ashirboyev Samixon
filologiya fanlari doktori, professor
ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Ushbu maqolada areal lingvistikaning eng zarur tushunchalaridan biri bo‘lgan “til ittifoqi” tushunchasining yuzaga kelishi va uning omillari to‘g‘risida fikr yuritiladi, “til ittifoqi”ning turkiy tillar va o‘zbek tili, uning shevalariga tatbiqining ayrim tomonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: areal, areal lingvistika, sheva, “til ittifoqi”, konvergeniya, lingvistik hudud, interferensiya, kontaktologiya.

Annotation

This article deals with the history of the emergence and factors of the concept of "linguistic union", which is one of the most important concepts of areal linguistics. Some aspects of the application of the concept of "linguistic union" in the Turkic languages and the Uzbek language, its dialects are revealed.

Key words: area, areal linguistics, dialect, “linguistic union”, convergence, linguistic territory, interference, contactology.

“Til ittifoqi” tushunchasining kelib chiqishi to‘g‘risida. “Til ittifoqi” areal tarixiy til birligining muhim bir tipidir. Unda til va dialektlarning yagona geografik kenglikda uzoq va doimiy ravishda kontaktda va konvergent taraqqiyotda bo‘lishi natijasida struktura va material o‘xshashliklikning muayyan miqdori bilan xarakterlanadi, boshqacha aytganda, kontakt va konvergent bo‘lgan tillarning hosilasidir.

“Til ittifoqi” g‘oyasi dastlab I. A. Boduen de Kurtene asarlarida aks etgan. Bu g‘oya N. V. Trubeskoyning “Vavilon minorasi va tillarning aralashuvi (1923)” asarida rivojlantirilgan va maxsus termin – *Sprachbund* termini bilan yuritildi, unda “til oilasi” va “til

ittifoqi” tushunchalarining farqlanishi lozimligi ta’kidlangan. Uningcha, “til ittifoqi” tillarning shunday guruhiki, sintaksis, morfologiyadagi sezilarli o‘xshashlik, ba’zan fonetika, madaniy (muomaladagi) so‘zlarning umumiy fondidagi tashqi o‘xshashlik ham uni yuzaga keltiradi [https:// ru Wikipedia.org.wiki].

Hozirgi areal lingvistikada quyidagi “til ittifoqi” to‘g‘risida fikr yuritiladi:

1. Bolqon “til ittifoqi”. Bunga bolgar, makedoniya, rumin, grek, alban tillari va ba’zi moldovan, serb, xorvat shevalari kiradi.

2. Yevropa “til ittifoqi” (“O‘rta Yevropa standarti”).

3. Eron-araks “til ittifoqi”. U janubiy Turkiya, shimoliy Iroq, shimoliy Eronni qamrab oladi.

4. Volga bo‘yi “til ittifoqi”. Bunga fin-ugor (mari, udmurd) va turkiy (boshqird, tatar, chuvash) tillari kiradi.

5. Markaziy Osiyo (Himolay) “til ittifoqi”. Bunga Markaziy Osiyoning turli til oilalari va guruhlari: eron, hind oriy, dravid, xitoy-tibet hamda sino-tibet tillari birlashtiradi.

Shuningdek, o‘zbek-tojik “til ittifoqi”, kavkaz “fonologik ittifoqi”, Yevroosiyo, Mesoamerika (qarindosh bo‘lmagan amerika hindiylari “til ittifoqi”), Niderland ishchi tili “til ittifoqi” to‘g‘risida ham fikrlar bor.

“Til ittifoqi” termini fanda o‘zlashib qolgan bo‘lsa-da, unga nisbatan tanqidiy qarash ham mavjud. Axborot tizimida bu o‘ta kuchli termin, shuning uchun ham uni “konvergent zona” deb yuritish kerak degan takliflar berilganligi to‘g‘risida ham ma’lumotlat keltiriladi [windov.edu.ru].

“Til ittifoqi va lingvistik hudud (areal)”. Bu ikki tushunchaning aloqador o‘rinlari bor. Lingvistik kenglik (hudud) umumiy va rang-barangdir. Lingvistik hududning yagonaligi va bir butunligi boshqa umumiylikka nisbatan farqlanadi. U turli kattalikdagi va ahamiyatli bo‘lgan lingvistik taksonlardan tashkil topadi. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlar bilan, ikkinchi tomondan, o‘z taraqqiyot sharoitlari bilan bog‘langan.

Areal tushunchasi til va dialektlarning turli hududlarda tarqalishini anglatadi. Boshqacha aytganda, tilning yoki shevaning

tarqalish o‘rnini bildiradi. Areal tushunchasi faqat til va dialektlarning emas, balki konkret bir izoglossaning tarqalishini, uning harakat yo‘llarini, joylashgan o‘rnini ham anglatadi, lekin bu tushunchada tarqalish ma’nosi yetakchidir;

Areal termini til va dialektlarning makon va vaqt birligi tushunchasini ham anglatadi. Bu til va shevalarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. U yoki bu til va uning shevasi turli tarixiy davrlarda hududlarini almashtirishi mumkin, Masalan, turkiy xalqlardan bo‘lgan qadimgi madyorlar (majorlar) hozirgi Volga daryosining quyi oqimlarida yashaganlar. Eramizning 896 yillarida ular quyi Dunay bo‘ylariga migratsiya bo‘lgan [<https://www.Krugosvet.ru>]. Tili esa slavyan tillari ta’siriga uchraydi va (gibrid) vengr tili bo‘lib shakllanadi. Madyorlarning tili to‘g‘risida gap ketganida o‘sha 896 yilgacha bo‘lgan davr va quyi Volga bo‘yi hududida tarqalganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Tillar tarixida bunday o‘lchov muhim rol o‘ynaydi. Makon va vaqt birligi tushunchasini shevalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Qadimgi turkiy urug‘-qabilalardan bo‘lgan arg‘ular Yettisuvda yashaganlar va VIII asrda Qarluq davlati tarkibiga kirgan, [Shoniyozov, 1999,167]. demak, ularning shevasi qarluqlariga yaqin bo‘lgan. Keyinchalik ular qipchoqlar tarkibiga qo‘shilib ketgan va hozirgi turkiy tillardan qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird tillari tarkibidagi urug‘larga aylangan. Demak, arg‘ular shevasi to‘g‘risida gap ketganida XI-XII asrlardagi holati bo‘yicha fikr yuritilishi kerak bo‘ladi.

Areal tushunchasi “til va shevalar ittifoqi”ni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan ular o‘zaro bog‘lanadi. “Til va shevalar ittifoqi” lingvistik kontaktologiyaning mahsuli ekanligi ma’lum. Har bir til va sheva o‘zicha rivojlana olmaydi, balki unga chegaradosh bo‘lgan til va shevalar bilan aloqada bo‘ladi. Bu jarayon ikki til yoki shevaning chegarasida yuz beradi. O‘zaro ta’sir doirasidagi bu tillar chegarasida har ikkala til yoki shevada oraliq sheva paydo bo‘ladi. Bu lingvistik hodisa “til yoki sheva ittifoqi” tushunchasini oladi. Bu hodisa areal lingvistika o‘rganadigan masalalardan biridir.

“Til ittifoqi” va kontaktologiya. “Til ittifoqi” aloqadagi tillar bilan birga vujudga keladi. Aloqadagi tillar tilshunoslikning kontaktologiya bo‘limida o‘rganiladi. Fanda lingvistik

kontaktologiyaning turli talqinlari bor. Bu masala bilan kontakt lingvistikasi shug'ullanadi. Axborot tizimlarida til kontakti ikki va undan ortiq tillarning o'zaro ta'siri natijasida yuz berishi ta'kidlanadi [[https://ru. Wikipedia.org.wiki](https://ru.wikipedia.org/wiki)] hamda tillarning *konvergensiyasi*, *so'z o'zlashtirish va reflekslashishi* natijasi ekanligi aytiladi. Ma'lumki, o'zbek tili va uning shevalari turkiy tillar bilan va turkiy bo'lmagan tillar bilan chegadoh va bir arealda bo'lganligi jihatidan o'zaro aloqada bo'lib kelmoqda. Bu ko'p asrlik aloqa bo'lib, uning mavjudligi aloqada bo'lgan tillarning shu zonadagi o'ziga xosligini ta'minlagan va shu tillar shevalarining o'ziga xosligini ham hosil qilgan. "Qozoq dialektologiyasi" mualliflari O'zbekiston bilan yondosh yoki O'zbekistondagi qozoqlar tilida (shevasida) o'zbek tilining sezilarli ta'sirini ko'radilar, lekin uni o'zbek tilining ta'siri deb qaramaydi, balki qozoq tili shevasining xususiyati deb talqin qiladilar, jumladan, *og'ixona, qistama (qishlash), zingg'ittay (o'ta kichkina), anaqi-munaqi (unaqa-munaqa), onsha-munsha (uncha-muncha), azin-shag'in (ozgina-chog'likkina), askadi (oshqovoq), belkurak* [Қалыев, Сарыбаев, 1967, 97-101]. Bu sof dialektologik qarashdir. Bu fakti qarindosh til misolidagi kontaktning natijasi deb qarasaq, bu jarayonni qarindosh bo'lmagan til misolida, ya'ni Buxoro shevalariga tojik tilining sezilarli ta'sirini M. Mirzaev tadqiqotlari yanada isbotlaydi, jumladan, u tojik tilidan yondosh o'zbek shevalariga *resha, bedona, alvonj (arg'imchoq), gavora (beshik), choygardon (cho'mich)* kabi o'zbek tiliga o'zlashmagan so'zlarning qo'llanishini ko'rsatadi [Мирзаев, 1961: 164-167].

Lingvistik kontakt faqat tillar chegarasida emas, balki turli etnik guruhlariga taalluqli bo'lgan shevalar orasida ham yuz beradi. Uning namunasini turkiy tillardan ozarboyjon shevalari tadqiqotlarida uchratish mumkin. M. Sh. Sheraliyev Ozarboyjon shevalaridan geokchay shevasi sharqiy va g'arbiy shevalar, jebrail shevasi g'arbiy va janubiy shevalar ta'siriga uchrab oraliq sheba bo'lib qolganligining xabarini beradi [Sheraliyev, 1963: 39-40]. O'zbek tilining qipchoq va qarluq lahjalariga oid shevalarning aralashishi masalasini Qashqadaryo shevalari misolida T. Qudratov tadqiq qilgan [Қудратов, 1968: 19-20]. Demak, "til ittifoqi" bir til ichida,

shevalarning o‘zaro ta’siri natijasi o‘laroq provard natijada oraliq shevalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

“Til ittifoqi” va konvergeniya. Konvergeniyaning yorqin namunasi “til ittifoqi” tizimini qarindosh tillar, shuningdek, noqarindosh tillar tashkil etishi yuqorida aytili, lekin bunday tuzilma yangi qarindosh tillarning paydo bo‘lishiga olib kelmaydi, balki ikki tillilikka olib kelishi mumkin. Bunga misol sifatida Bolqon til ittifoqini keltirish mumkin va bu orqali “til ittifoqi”ning umumnazariy qoidasi aniq bo‘ladi. Bu “ittifoq”da slavyan tillari va uning shevalari, bolqon-roman, alban, yangi grek tillari ko‘p asrlik kontaktda bo‘lishi umumiste‘moldagi leksika, tovush tizimidagi, morfologik va sintaktik qurilishidagi ko‘p o‘xshashliklarning asosiy xususiyatlarini aks ettirgan. Bu kabi holatni Volga bo‘yi turkiy tillari “til ittifoqi”da ham ko‘rish mumkin. “Til ittifoqi”da ikki tillilik sharoitida bir til dominantlik qiladi [[https:// ru. Wikipedia.org.wiki](https://ru.wikipedia.org/wiki)].

“Til ittifoqi va interferensiya. Muayyan til yoki shevalarning aloqada bo‘lgan (qo‘shni) til va shevalar bilan *interferensiyasi* “til va dialektlar ittifoqi” (kontakt) mavjud hududlarda yuz beradi. Bu ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda ekstralingvistik faktorlar, til va dialekt egalarining ijtimoy faolligi, ularning kasb-kori, muloqot tarzi, ularda gaplashuvchi shaxslar miqdori va geografik muhiti, ularning tili yoki shevasini o‘rganishga imkoniyatning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, interferensiyada tillar va shevalarning o‘zaro ta’sirni aniqlash qiyin emas, balki bu hududda u yoki bu izoglossaning nima uchun o‘zlashtirilganligini izohlash qiyinchilik tug‘diradi. Bunda shu narsa ma’lumki, interferensiyada qatnashayotgan til yoki dialekt begona til va dialektning o‘z tizimida bo‘lmagan faktlarini o‘zlashtiradi hamda ular o‘z tillaridagi bo‘shliqni shu lingvistik hodisalar (fonetik, leksik, grammatik) hisobiga to‘ldiradi.

Ma’lumki, o‘zbek tili qozoq, qirg‘iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda uning shevalari bilan kesishgan o‘rinlarga ega. Shevalar kesishgan joyda har ikkala tilga o‘xshamagan shevalar paydo bo‘ladi. So‘zsiz, bu shevalardagi o‘zbek tiliga xos bo‘lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo bo‘ladi. Bu muammo sharhlash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan

aralash va qo‘shni yashaydigan o‘zbeklar shevasida egalik affiksi va o‘rin-payt, chiqish kelishigi o‘rtasida *n* undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo‘lida ~ *älindä*, qolidan ~ *älinnän*. Qirg‘iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar *n* undoshining yo‘qolib borishi ham o‘zbek tili shevalari bilan interferensiyaning natijasidir [Ashirboyev, 2016: 82].

“Til ittifoqi” va innovatsiya. Innovatsiya muammosi “til va dialektlar ittifoqi” mavjud bo‘lgan joylarda paydo bo‘ladi. Agar bir til yoki bir sheva amal qiladigan hudud bo‘lsa, bu o‘rinda innovatsiya haqida fikr yuritish mumkin emas. Innovatsion markaz “til va dialektlar ittifoqi”, ya’ni bir necha til va dialektlar aralash faoliyatda bo‘lgan hududlarda aniqlash to‘g‘risida fikr yuritiladi. Masalan, turkiy tillar o‘zaro va tashqi muhit, boshqa tizimdagi tillar bilan birga yashaydi. U yoki bu izoglossaning innovatsion markazini aniqlashda ana shu “begona” til va shevalarni inkor qilish asosida erishiladi.

Ko‘rinadiki, “til ittifoqi” tushunchasi millat va shevalarni tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida shevalarni tadqiq qilishda bu tamoyil yetakchi mavqega chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Шералиев М.Ш. О проблеме языка и диалекта // Вопросы диалектологии тюркских языков. –Баку: Академия наук Азербайжанск..., 1963.
3. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.
4. Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш. Қазақ диалектологиясы. – Алматы: Мектеп, 1967.
5. Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралиқ шевалари: Филол фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968.

MUNDARIJA

1.	Sirojiddinov Sh.	Vatanning sadoqatli farzandi	3-6
2.	Normamatov S., Mengliyev B.	Ibrat maktabi	6-11
3.	Madrimov M.	Oliy pedagogik ta'lim fidoyisi	12-22
4.	Ibragimov Y.M.	Samixon Ashirboyev – o'zbek tilshunosligining fidoyi darg'alaridan biri	22-28
5.	Yarqulov R.	Baxtli hayot sohibi - betakror ustoz	28-30
6.	Sobirov A	Yassaviylar ruhi qo'llagan ustoz	30-36
7.	Suyunov K., Pardayev A.	«Ul kishi so'z bahrida g'avvos erur...»	36-39
8.	Mamatov A.	Ustoz, atoqli tilshunos, samimiy inson	39-42
9.	Iskandarova Sh., Rasulova A.	Tilimiz tarixining zabardast tadqiqotchisi	43-44
10.	Uluqov N.	Til tarixi tadqiqi borasida maktab yaratgan ustoz	45-49
11.	Muhamedova C.	Ibrat timsoli	49-56
12.	Murodova N.	E'tirof va e'zozga munosib ustoz	57-58
13.	Saparniyozova M.	Maktab yaratgan ustoz	58-61
14.	Mahmudov R.	Etika – e'tiqod falsafasi	62-64
15.	Raxmatov M., Odilova S.	Zakiy olim, ardoqli ustoz	65-68
16.	Hakimova M	Yetuk tilshunos olim	68-72
17.	Pardayev Q.	Mohir pedagog va ulkan olim	72-74
18.	Muydinov Q.	Olimlik fazilati va odamiylik ziynati	75-77
19.	Axmedova N.	Ilmda olim-u hayotda fozil	77-79
20.	Masharipova J., Yangibayeva G.	Ilimge g'amxorliq	80-83
21.	Musayeva F., Ismoilov G'	Turkiston farzandi	84-85

22.	Ibragimova U.	S.Ashirboyev – til xazinasini taraqqiyotini manbalarga bog`lab tadqiq etgan olim	86-89
23.	Ibragimova Z.	Samixon Ashirboyev – o`zbek tilshunosligining tashabbuskor olimi	89-92
24.	Shinnazarova S., Kaypnazarova M.	Nukus dialektologiya maktabining asoschisi	92-96

1-SHO`BA
O`ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA MUNOSABATLARI

1.	Karimov S., Pardayev A., Mahmadiyev Sh.	Samarqand tilshunoslik maktabi va uning o`zbek shevashunosligi taraqqiyotidagi o`rni	97-101
2.	Mamatov A.	Dialektal so`zlar va frazeologik shakllanish masalalari	102-106
3.	O`rozboyev A., Norbayeva Sh.	Xorazm kitobat dostonlari – shevalar leksikasi tadqiqida muhim manba	107-114
4.	Shahobiddinova Sh., Abdullayev B.	Og`zaki reklamalarda shevalarning lingvistik xususiyati	115-119
5.	Enazarov T.	Dialektal so`z maqomi	119-130
6.	Xidraliyeva Z.	Iqon shevasida so`z yasalishidan	131-133
7.	Qurbonov S.	Murod Muhammad Do`st asarlarida dialektizmlarning qo`llanilishi	134-140
8.	Tillabayeva Z.	Samarqand shahri shevalari leksikasining adabiy tilga munosabati	140-143
9.	Xushmurodova Ch.	“Shohrux Mirzo” romanida qo`llangan dialektizmlarning uslubiy xususiyatlari	143-146
10.	Yusupova N.	Adabiy til leksemalarining dashnabod shevasidagi variantlari	147-152

2-SHO`BA
O`ZBEK SHEVALARINI AREAL O`RGANISH VA TARIXIY DIALEKTOLOGIYA

11.	Ashirboyev Samixon	“Til ittifoqi” tushunchasining o‘zbek areal lingvistikasiga tatbiqi masalasi	153-158
12.	Dadaboyev H.	Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan qo‘l-oyoq kiyimlari nomlari	159-166
13.	Abdiyev M.	Zarafshon vodiysi o‘zbek shevalarini o‘rganish tarixi va bugungi holati	166-173
14.	Abdushukurov B.	“Devonu lug‘otit turk” va o‘zbek tili shevalari	174-184
15.	Axmedova N.	O‘zbek tilining Xorazm shevasiga oid ayrim so‘zlar tahlili	184-191
16.	Qilichov N.	“Oltun yorug‘” asarining dialektal tarkibi	191-197
17.	Yangibayeva N.	G‘ozi Olim ilmiy talqinida o‘zbek shevalari tasnifi	197-202
18.	Turdialiyev A.	Denov shevalarining o‘rganilishi	202-210
3-, 4-SHO‘BA			
O‘ZBEK TILI KORPUSI VA DIALEKTOLOGIYA DIALEKTOLOGIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA			
19.	Xolova M.	O‘zbek milliy shevalar korpusi mavzuviy metarazmetka maydoni sifatida	2011-224
20.	Qodirova X.	Xorazm shevalarida birikma shaklidagi laqablar	225-228
21.	Nurjanov O.	Hudud shevalari tarkibidagi marosim ifodalovchi so‘zlar	228-235
22.	Madaminova R.	Qoraqapog‘iston o‘zbek shevalarida “to‘y marosimi” bilan bog‘liq leksemalar	235-239
23.	Zokirov B.	O‘zbek xalqi etnonimlarini tasniflash usullariga oid ayrim tadqiqotlarga nazar	239-246
24.	Hasanov A.	Bog‘dorchilikka oid leksik lakunalarni dialektizmlar bilan boyitish masalalari	246-250
5-SHO‘BA			

O‘ZBEK VA TURKIY TILLAR SHEVALARINING YANGI TADQIQOTLARI			
25.	Абдувалитов Е.	Әдеби тилдің бір арнасы – жергілікті кәсіптік сөздер	251- 254
26.	Suvonova R.	Qipchoq shevasidagi fonetik o'zgarishlar	254- 257
27.	Islamova D., Jalilova M.	Samarqand viloyati Tayloq tumani shevalari leksikasi	257- 262
28.	Сайфуллаев Б.	Диалектілік фразеологизмдердің өзіндік ерекшеліктері	262- 267
29.	Nabiyev R.	Forish shevasiga xos qush va hashoratlar nomlariga terminlar	267- 271
30.	Bashir A.	Afg‘oniston o‘zbek shevalarida ko‘plikning ifodalanishi	271- 274
31.	Muhammad O.	Afg‘oniston o‘zbek shevalaridagi umumturkiy so‘zlar	274- 275
6-SHO‘BA			
DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, TOPONIMIYA VA TERMINOLOGIYA			
32.	Tog‘ayev T.	Rus tiliga o‘zlashgan ayrim turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar haqida	276- 282
33.	Norbayeva Sh.	Xorazm shevalari kasbiy leksikasi tizimidagi tarixiy so‘zlar tahlili	282- 286
34.	Xolmuratov I.	Etnooykonimlar asosida yaratilgan ba‘zi joy nomlari xususida	286- 291
35.	Usmonova S.	Qo‘qon shahri guzarlari nomlari	291- 294
36.	Amandurdiyev A., Allaberdiyeva D.	Qoraqalpog‘iston turkmanlari tilidagi islom dini bilan bog‘liq ba‘zi etnografizmlar	294- 297
37.	Umurzoqova M.	Zomin shevasida qo‘llaniladigan taom nomlari xususida	298- 301
38.	Dosmuxamedova S.	Yangiyo‘l va Toshkent shevalaridagi so‘zlarning zamonaviy va tarixiy-etimologik qatlamlari	302- 305
7-SHO‘BA			

TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI			
39.	Мынбаев Н.	Об этимологии полисонима Яссы	306-314
40.	Кулмаматов Д.	Названия хивинских и бухарских ханских канцелярских должностных лиц в русских письменных деловых памятниках XVII века	315-329
41.	Hakimova M.	Sinesteziya va uning tildagi voqelanishi	330-337
42.	Rahmatov M.	Alisher Navoiy g‘azallarida nutq subyektining ifodalanishi	338-343
43.	Дуйсебаева Д.	Қарым-қатынас мәдениетінде жазудың рөлі	343-348
44.	Saidxonov M.	Til amaliyotida “oila tili”ning o‘rni	348-354
45.	Latipov M.	Ishoqxon ibratning tilshunoslik faoliyati	355-359
46.	Sobirova B.	Символично-семантическая парадигма и концептуальное значение красного цвета	359-364
47.	Allamberganova M.	Qadimgi turkiy yozma manbalarda diniy qarashlarni ifodalovchi so‘zlar	365-368
48.	Alimardanov E.	Xorazm shevalaridagi birlamchi cho‘ziq unlilarning o‘rganilishiga doir	368-373
49.	Azadova B.	“Devonu lug‘otit turk”da fe‘l kategoriyalari tavsifi	373-376
50.	Alimbekova V.	Insonlarning psixologik-ruhiy hissiyotlari, harakat-holatlarini ifodalovchi leksemalar	376-382
51.	Ishayev J.	Qahramonlik eposlaridagi arabcha-forscha leksika	383-386
52.	Qodirova N.	Maqollarda nutqiy antonimiyaning vujudga kelishi	386-390